



ABDULLA ORIPOV SHE'RIYATIDA XALQ RUHIYATI

Fayzullayeva Nafisa Sharif qizi

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat

Universiteti filologiya fakulteti talabasi

fayzullayevanafisa0@gmail.com

Annotation: *Ushbu maqolada Abdulla Oripov she'riyatida folklor unsurlarining o'rni tahlil qilinadi. Shoir xalq og'zaki ijodi motivlari, ramzlari va tasvirlaridan nafaqat mazmunni boyitish, balki xalqning ruhiyati va qadriyatlarini ifodalashda ham samarali foydalangan. Tadqiqotda bu unsurlar adabiy tafakkur va zamonaviy dunyoqarash bilan qanday uyg'unlashgani hamda Oripovning milliy o'zlikni ifodalashdagi badiiy yondashuvi ochib beriladi.*

Kalit so'zlar: *Abdulla Oripov ijodi, she'riyat, folklor, folklor, ramzlar, badiiy uslub, adabiy tahlil, xalq ruhiyati, maqol.*

Abstract: *This article analyzes the role and significance of folkloric elements in the poetry of Abdulla Oripov. In his works, the use of folk oral traditions, especially folk tales, legends, epics, and other folkloric forms, has become an inseparable part of his artistic style. Abdulla Oripov utilizes folkloric motifs, symbols, and images not only to enrich the meaning and content of his poems but also to express the values, spirit, and historical memory of the people. The article shows how folkloric elements come to life in the poet's works and merge with literary thought and modern worldview. Furthermore, it highlights Abdulla Oripov's artistic approach to integrating folkloric motifs with his poetic imagery to express national identity. The research deeply explores how Abdulla Oripov successfully combines distinctive artistic forms and folk oral traditions in modern literature.*

Keywords: *Abdulla Oripov's works, poetry, folklore, symbols, artistic style, literary analysis, national spirit, proverb.*

Абстракт: *В данной статье анализируется роль и значимость фольклорных элементов в поэзии Абдуллы Орипова. В его произведениях использование народного устного творчества, особенно народных сказок, легенд, эпосов и других фольклорных форм, стало неотъемлемой частью его художественного стиля. Абдулла Орипов использует фольклорные мотивы, символы и образы не только для обогащения смысла и содержания своих стихов, но и для выражения ценностей, духа и исторической памяти народа. В статье показано, как фольклорные элементы оживают в произведениях поэта и гармонично сочетаются с литературным мышлением и современным мировоззрением. Кроме*





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

того, освещается художественный подход Абдулла Орипова к интеграции фольклорных мотивов с его поэтическими образами для выражения национальной идентичности. Исследование глубоко анализирует, как Абдулла Орипов успешно сочетает уникальные художественные формы и народное устное творчество в современной литературе.

Ключевые слова: Творчество Абдуллы Орипова, поэзия, фольклор, символы, художественный стиль, литературный анализ, народный дух, пословица

KIRISH

Folklor xalq ogʻzaki ijodining ajralmas qismi sifatida oʻzining boy mavzu doirasi va ramzlar tizimi bilan shoirning ijodiga mustahkam asos boʻlgan. Abdulla Oripov folklor elementlarini oʻz asarlarida nafaqat estetik maqsadlarda, balki xalqning maʼnaviyati, dunyoqarashi va ruhiyatini ifodalashda keng qoʻllagan. Uning sheʼrlarida folklor motivlari, obrazlari va tasvirlari shoirning oʻziga xos badiiy uslubini yanada boyitib, oʻzbek adabiyotida yangi ifodaviy shakllarni yaratgan[1]. Shu bilan birga, Abdulla Oripov folklor orqali milliy oʻzlikni saqlash, zamonav dunyoqarash va adabiy tafakkur bilan uygʻunlashtirishga erishgan. Ushbu maqolada Abdulla Oripovning sheʼriyatida folklor unsurlarining qanday qilib badiiy shakllar bilan birlashib, milliy adabiyotda yangi yuksakliklarni kashf etgani, shuningdek, folklor motivlarining sheʼriy obrazlar orqali qanday ifodalanishi tahlil qilinadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Abdulla Oripov sheʼriyatida folklor mavzusining oʻrganilishi bilan bogʻliq ilmiy asarlar oʻzbek adabiyotshunosligi, folklorshunoslik va madaniyatshunoslik sohalarida katta qiziqish uygʻotgan. Oripovning ijodida folklor unsurlarining oʻrni va ularni badiiy jihatdan ishlatish masalalari koʻplab ilmiy tadqiqotlarga mavzu boʻlgan. Shu oʻrinda, filologiya fanlari boʻyicha falsafa doktori Laylo Oʻsarovanning “Abdulla Oripov sheʼriyatida xalqona uslub va milliy ruh uygʻunligi”, G. Ravshanbekovanning “Abdulla Oripov poetikasida xalq ogʻzaki ijodining ahamiyati”, Tugʻba Yilmazning “Abdulla Oripov sheʼriyatida tasavvur va obraz” nomli monografiyasi va shu kabi ilmiy ishlar shoirning folklorga boʻlgan munosabati va uning asarlarida folklor elementlarining talqini yuzasidan qimmatli ilmiy qarashlar taqdim etadi. Oripovning sheʼriyatida xalq ogʻzaki ijodiga boʻlgan hurmat va uning badiiy shakllarda talqin qilinishi haqida Laziza Orifovning “Abdulla Oripov ijodida xalq iboralarining qoʻllanilishi”, Maqsuda Ergashevaning “Abdulla Oripov sheʼriyatining oʻziga xos xususiyatlari” tomonidan yozilgan. Ushbu tadqiqotlar shoirning folklor unsurlarini zamonaviy badiiy ifodalar bilan uygʻunlashtirishdagi yondashuvlarini va folklorning uning sheʼriyatidagi estetik rolini oʻrganishga yordam beradi. Tadqiqotning metodologik asoslari koʻplab adabiyotshunoslik metodlariga tayanadi.

NATIJALAR





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Abdulla Oripovning she'riyatidagi folklor motivlarini tahlil qilishda “Case-study”(Keys-stadi) metodini qo'llash orqali “O'zbekiston” va “Ona tili” she'rlarni tahlil qilish mumkin. Quyida, “O'zbekiston” va “Ona tili” she'rlarini tahlil qilib, jadval shaklida keltirildi [2, 112]:

No	She'r nomi	Asosiy mavzu va g'oyalar	Xalq og'zaki ijodi bilan bog'liqlik	Badiiy vositalar	Tarbiyaviy va ma'naviy xulosa
	“O'zbekiston”	Vatanga muhabbat, milliy g'urur, tarixiy xotira	Shoir xalq og'zaki ijodidagi obrazlar, masalan, “tuproqni o'pish”, “ta'zim qilish” kabi ifodalarni she'rga olib kirgan. Bu orqali xalqning Vatanga bo'lgan mehrini badiiy shaklda ifodalagan.	Metafora, epitet, xalqona iboralar, jonlantirish (personifikatsiya)	She'r o'quvchida Vatanga sadoqat, tarixiy o'zlikni anglash, milliy qadriyatlarga hurmat tuyg'ularini uyg'otadi.
	“Ona tilim”	Ona tiliga sadoqat, milliy o'zlikni saqlash	She'rda “bulbul” va “to'ti” obrazlari orqali xalq og'zaki ijodida keng tarqalgan ramzlar ishlatilgan. Bulbul – erkin ijodkorlik, to'ti – taqlidchi sifatida talqin qilingan.	Ramziy obrazlar, parallelizm, xalqona teskari qiyoslash, jonlantirish	She'r o'quvchida ona tiliga mehr, uni asrash va rivojlantirishga bo'lgan mas'uliyat hissini kuchaytiradi.

Oripovning she'rlarida folklor motivlari xalqning ma'naviy dunyosini, tarixini va madaniyatini yuksak badiiy darajada aks ettiradi. Keys-stadi metodidan foydalanish orqali, shoirning she'riy asarlaridagi folklor unsurlarining qanday ishlatilgani va





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC
SOLUTIONS

ularning she'rlaridagi badiiy ahamiyati chuqur tahlil qilindi. Bu metod, folklor va zamonaviy adabiyot o'rtasidagi uyg'unlikni, shuningdek, Abdulla Oripovning badiiy uslubini yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

MUHOKAMA

O'zbek adabiyotida Abdulla Oripov she'riyati takrorlanmas, yuksak saviyaga egaligi bilan alohida ajralib turadi. Shoir she'rlarida xalq maqollardan o'ziga xos tarzda foydalanadi. "Yaxshilik va yomonlik" sarlavhasi ostidagi quyidagi she'rga diqqat qilaylik:

*...Kimsaga yomonlik qilmagil,
Bir kuni o'zingga qaytadi...
Darvoqe, pand bersang bir jonga,
U ham tinch turarmi hech zamon.
Darvoqe, pand bersang bir jonga,
U ham tinch turarmi hech zamon.
Deydilar, tuflasang osmonga,
Yuzingga tushgaydir begumon... [3, 132].*

She'ring birinchi bandida qo'llangan "Kimsaga yomonlik qilmagil, Bir kuni o'zingga qaytadi" maqolining she'riy tarzidagi variant "Birovga choh qazigan o'zi yiqiladi" qabilida ham uchraydi. Shoir hayotda kimgadir qilingan yomonlik, shubhasiz, kishining o'ziga qaytishini ta'kidlaydi. Ikkinchi bandda ham "Osmonga tuflasang, yuzingga tushadi" mazmunidagi maqol bilan fikrini yana bir bor asoslaydi. Quyidagi misralarga e'tibor qarataylik:

*Elning shoirlari g'anim zotlar kabi
Bir-birlarin g'oyib yesalar,
Minbarlarga chiqsa ko'cha-ko'yning gapi,
Andishani qo'rqq desalar...*

(“Savob”) [4, 15].

Abdulla Oripovning hayot va ijod yo'lida shoirga hasad-u adovat bilan yashagan kimsalar juda ko'p bo'lgan. Ularning orasida shoirlar ham bo'lishi tabiiy. Yuqoridagi misralarda shu haqida fikr yuritiladi. Bir- birlarini "g'ajib yeyuvchi" ko'cha-ko'ydagi gaplarni ham minbarlarga olib chiquvchi kimsalar "andishani qo'rqq" deb o'ylashlari ifodalanadi. Xalq orasida "Andishaning oti – qo'rqq" degan naql bor [5, 512]. Xo'sh, rostdan ham andisha qo'rqqlik bilan tengmi? Andishani so'zining ma'nolariga e'tibor berilsa, uning "o'y", "mulohaza", "or-nomus", "uyat" kabi ma'nolari borligiga guvoh bo'lamiz [6, 84]. Yuqoridagi maqolda ham nozik tagma'no borligini ko'ramiz. Andisha - uyatdir. Bizning ajdodlarimiz har qanday pastkash, tuban, hasadgo'y-u fosiq insonlar bilan teng bo'lishga uyalishgan, nomus qilishgan. Qarshi tomon esa buni qo'rqqlik deya talqin etishgan. She'rda ham shoir xuddi shu holatga tushganini bittagina misra orqali, birgina maqol orqali ochib beradi.

XULOSA





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Abdulla Oripov she'riyatida folklor motivlarining keng qo'llanilishi uning asarlariga chuqur ma'no va milliy ruh kiritadi. Shoir xalq og'zaki ijodining boy merosidan foydalangan holda, vatan sevgisi, ajdodlarga bo'lgan hurmat va milliy o'zlikni ifodalovchi tasvirlarni yaratgan. Folklor elementlari, nafaqat she'rlarning ma'nosini boyitishda, balki xalqning tarixiy xotirasi, madaniy qadriyatlari va ma'naviy dunyosini aks ettirishda ham muhim rol o'ynaydi. Oripovning folklor motivlarini zamonaviy badiiy uslub bilan uyg'unlashtirishi uning she'riyatiga o'ziga xos yuksaklik va milliy ahamiyat beradi. Tadqiqot, shuningdek, Oripovning folklor motivlarini qanday qilib zamonaviy adabiyotga moslashtirishda muvaffaqiyatli qo'llaganini ko'rsatdi. Bu esa uning asarlarini o'zbek adabiyotining yuksak yodgorliklaridan biriga aylantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Yo'ldoshev Q. (1996). Adabiyot o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari. Toshkent: O'qituvchi.
2. Oripov A. (1997). Savob. Toshkent: Ma'naviyat, 112.
3. Oripov A. (2018). Saylanma. Toshkent: Tafakkur qanoti, 132.
4. Oripov A. (1997). Savob. Toshkent: Ma'naviyat, 15.
5. O'zbek xalq maqollari. (1997). Toshkent: Ma'naviyat, 512.
6. O'zbek tilining izohli lug'ati. (2021). Toshkent: O'zbekiston nashriyoti, 84.

